

MAKTABGACHA TA'LIMDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNING AHAMIYATI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ILG'OR TAJRIBALAR.

Hoshimova Dilnoza

NamDPI, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni tarbiyalashda tarbiyachilarning ota-onalar bilan hamkorligi, zamonaviy tendensiyalar va ilg'or tajribalar tahlil qilinadi. Bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun ta'lim tashkilotining oilalar bilan hamkorligi muhimligi ifodalangan. Hozirgi paytda zamonaviy yondoshuvlar asosida ota-onalar bilan samarali muloqot, interaktiv metod, oilaviy ta'lim dasturlari va innovatsiyalardan foydalanish muhimligi bayon etilgan. Shu bilan bir qatorda ota-onalar bilan ishlashning ilg'or usullari va ularning amalyotga tadbiq etish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar:

Maktabgacha ta'lim, ota-onalar bilan hamkorlik, ilg'or tajribalar, zamonaviy tendensiya, oilaviy ta'lim pedagogik hamkorlik.

ABSTRACT

In this article in raising children aged children cooperation of educators with parents, modern trends and best practices are analyzed, In order to develop children's allround development, the importance of educational institutions with families is expressed, Currently, effective communication with parents based on modern approaches is an interactive method, it is clear that the importance of use of family class programs and innovation. At the same time, the advanced methods of working with parents and ways to apply to practice.

Key words: Preschool education, cooperation with parents, advanced experiences, modern trend, family education, pedagogical cooperation

KIRISH

Maktabgacha ta'lim bolaning kelajakdagi intellektual, ijtimoiy va hissiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zi insoniyatning kamol topishida uchta omil: nasl, oila, muhit muhim rol o'ynaydi. Bularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shaxsni tarbiyalashda ana shu omillar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash kerek. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar ta'lim jarayonida faol ishtirok etgan hollarda bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faolligi, ijtimoiy moslashuv qobiliyati ortadi. Shu boisdan, butun jamiyatning ta'lim tizimida ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqarilmoqda. Bolalar yaqinlari oldida o'zini erkin, himoyalangandek tutadi. Tarbiyachi ota-onalar bilan hamkorlik qilganda bolalarning uydagi o'zgarishlari, tarbiyasidagi o'zgarishlar haqida fikr almashadi va bolalarning to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Ta'lim va tarbiya oilada ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham reja, nazorat ostida olib boriladi.

Ota-onalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik quyidagi asosiy maqsadlarga xizmat qiladi:

- Bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash.
- Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va individual yondoshuvni shakllantirish

• Ota-onalarning ta'lim jarayonida ishtirokini faollashtirish. Ota-onalar tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanib kelgan bolalar ta'limning keyingi bosqichlarida boshqa tengdoshlariga nisbatan ko'proq muvaffaqiyatga erishadi va stressga chidamli bo'ladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimida ham ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan ta'lim strategiyasi" doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish belgilangan.

2021-yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi" doirasida oilaviy ta'limni rivojlantirishga urg'u berilgan. Oilaviy klublar va seminarlar orqali ota-onalar farzandlarini tarbiyalash bo'yicha pedagoglar bilan fikr almashmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar uchun maxsus trening va vebinarlar tashkil qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali ota-onalar bilan aloqa o'rnatish tizimi yo'lga qo'yildi. Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi mumkin:

- Ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- Ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
- Ota-onalarni o'quv tarbiyaviy jarayondafaol qatnashishga jalb etish;
- Ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarni qo'llab quvvatlash. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta'lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishi mumkin:
- Bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish (seminar ota-onalar klubi, trening maslahat, konfrensiya, davra suhbatlari pedagogik mexmonxonalar va boshqalar)
- Muntazam ravishda muloqot (kommunikatsiya)ni ta'minlash (ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlagan xolda pedagoglarning ota-onalar bilan online va offline uchrashuv va yig'ilishlarni o'tkazishi, elektron xabarlar almashishi, bolaning rivojlanishi haqida ma'lumot berish va boshqalar);
- Ota-onalarni guruh va / yoki maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'ngillik faoliyatiga jalb etish (rivojlanuvchi muhitni yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni taminlash; o'yinlar tashkil etish; qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish; ko'rgazmalarni bezash, mashg'ulot, bayram va tadbirlarni tashkil etish va ularda birgalikda qatnashish);
- Ota-onalarga uyda bolaning o'qishini davom ettirishda (tashkil etishda) ko'maklashish (topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lim olishni kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etish va boshqalar);
- Maktabgacha ta'lim tashkilotiga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish (kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash, ularning faoliyati doirasida ota-onalarni habardor qilish, umumiy va guruhlarning ota-onalar yeg'ilishlarida qatnashish, maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi dasturini yaratish va ularning amalga oshirishda ishtirok etish, bolaning qiziqishlariga qarab maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'shimcha xizmatlarni tanlash);
- Bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish (maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkillashtirishda mahalliy hamjamiyat resurslardan

foydalanish, hududdagi muzeylar, istrohat bog'lari, hunarmantlar ustaxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, mahalliy hokimlik yetakchilari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularni guruhlariga va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlarga taklif qilish, ochiq eshiklar kuni va bayramlar tashkil etish.

Shu jihatda aytib o'tish kerakki, bolalarning bo'sh vaqt kunlarida ya'ni dam olish kunlarida turli joylarga sayohatlar uyushtirish, buni bayram kunlarida ham davom ettirish u maktabgacha talim tashkilotiga kelganida sayohatda olgan taasurolari haqida suhbatlashish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ochiq ta'limiy faoliyatlar tashkil etish va ularga ota-onalar bilan farzandlarning salomatligi va tarbiyasi, ta'lim olishi borasida suhbatlar olib borish va tarbiyachilar bolalar birgalikda teatirlashgan sahna ko'rinishlarini tashkil etish va unga ota-onalarni jalb qilish bu ishda muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi.

Ilg'or tajribalar Yaponiyadagi "KODOMOYEN" Maktabgacha ta'lim tizimi – bu bolalar bog'chasi (hoikuen) va maktabgacha ta'lim muassasi (yo'chien) elemintlarini o'z ichiga olgan gibrid model hisoblanadi. Kodomoen tizimi Yaponiya hukumati tomonidan 2006-yilda taqdim etilgan va 2012-yilda rasmiy ravishda qonuniy maqomga ega bo'ldi.

Sertifikatlangan kodomoen to'rt toifaga bo'linadi

1. Bolalar bog'chasi kunduzgi parvarish muassasasi hamkorligi turi-Ruxsat berilgan bolalar bog'chosi va ruxsat berilgan kunduzgi parvarish markazi hamkorlikda keng qamrovli faoliyat yuritadi
2. Bolalar bog'chasi turi – Bolalar bog'chasi vazifalarini bajaradigon ruxsat berilgan bolalar bog'chasi, masalan oilaviy parvarish yetishmaydigon bolalar uchun parvarish vaqtini taminlash.
3. Kunduzgi parvarish markazi turi- Bolalar bog'chasi vazifalariga ega ruxsat berilgan kunduzgi parvarish markazi, masalan, faqat oilaviy parvarish yetishmaydigon bolalar emas, balki boshqa bolalarni ham qabul qilish.
4. Mahalliy ixtiyor tur-Sertifikatlangan KODOMOEN sifatida zarur funksiyalarga ega bo'lgan, rasmiy ruxsatga ega bo'magan mahalliy ta'lim yoki bolalar parvarish muassasalari.

Reggio Emilia falsafasi va maktabgacha ta'limga yondoshuvi 40 yildan ortiq tajriba natijasida shakllangan va rivojlantirishda davom ermoqda. Bu tizim Italiyadagi Reggio Emilia shahrida joylashgan shahar maktabgacha ta'lim tizimlari va bolalar bog'chalarida joriy qilinga. 1940-yillarda maktablarni tashkil etilgan ota-onalar bugungi kunda ham faol ishtirok etib, maktabning jamiyat qadriyatlarini aks ettirishni taminlaydilar.

Dastlabdan boshlab- Loris Malaguzzi- ta'lim sohasidagi yetakchi, faylasuf va innovator, o'sha paytda yosh o'qtuvchi bo'lgan- ota-onalar va bir necha o'qtuvchilarning ennergiyasini yo'naltirib, ularga yo'l ko'rsatgan. Ko'p yillik tajribasi davomida u munosabatlarga asoslangan ta'lim tizimini ishlab chiqdi, bu esa keng tanilgan va qadirlanadigan yondashuvga aylandi. Reggio Emilia yondoshuvi chuqur falsafiy tamoyinlar va boy tajribaga asoslangan mustahkam poydevorga ega. Reggio Emilia pedagoglari Dewwey, Piaget, Vygotskiy, Gardner va Bruner kabi mashxur bolalar psixologlari va faylasuflardan ilhomlanganlar.

Zamonaviy tendensiyalar – Bu o'rinda raqamli texnologiyalar bilan ota-onalar o'rtasidagi xamkorlik Mobil ilovalar va online platformalar orqali ota-onalar farzandlarining rivojlanish jarayonini kuzatish imkoniga ega. Misol uchun, Classik Dojo, Seesaw, Google classroom kabi platformalar ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi aloqani mustahkamlashda qo'llanilmoqda (Almarashdek 2020) vertual uchrashuvlar va vebinarlar orqali ota-onalar uchun maslahat berish tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Oilaviy ta'lim dasturlari – Finlandiya, AQSH, Kanada, kabi mamalakatlarda ota-onalar uchun mahsus

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

pedagogik trening va seminarlar tashkil etilib, ularga bolalar psixalogiyasi va tarbiyasi bo'yicha bilim beriladi (OECD2021).

Oilaviy ta'lim dasturlarining rivojlanishi bolalar bog'chalari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga muhim rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachining boshqa pedagoglar bilan hamkorligi bolalarning har tomonlama rivojlanishi va ta'lim-tarbiya jarayoning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tarbiyachilar metodistlar, logopedlar, psixologlar, musiqa rahbarlari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi, ikkinchi til o'qtuvchisi bilan tajriba almashib yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashadi, pedagoglar o'zaro ochiq ta'limiy faoliyat tashkil qilib, samarali usullarni muhokama qilishadi. Bolalardagi nutqiy nuqsonlari yoki psixologik muammolari bo'lgan bolalar bilan individual ishlashni tashkil etishda psixolog va logoped bilan hamkorlik qilish muhim. Tibbiyot xodimlari bilan esa- Bolalarning jismoniy rivojlanishi nazorat qilish va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha hamkorlik olib boriladi. Musiq rahbarlari bilan ishlashda esa- Bayram tadbirlarini tashkil qilish, bolalarning musiqa va raqs bo'yicha qobiliyatlarini rivojlantirib boriladi. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi bilan ishlashda- Bolalar bilan jismoniy mashqlarini to'g'ri tashkil qilish va sport o'yinlari orqali ularning sog'lom rivojlanishiga yordam beradi.

XULOSA

Maktabgacha ta'limda ota- onalar bilan hamkorlik bolalarning akademik va ijtimoiy rivojlanishida kata ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda inaversion texnologiyalar, oilaviy ta'lim dasturlari va individual yondashuvlar orqali bu jarayon yanada samaraliy tashkil etilmoqda, jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki ota-onalar va pedagoglar hamkorligi bolalar uchun eng yaxshi natijalarni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" Toshkent 2020 y
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam "davlat o'quv dasturi Toshkent 2022 y
3. Yoko Shirakawa, Profressor Early childhood Education, Konan Wamen's University Projuts "Japon's Early education and childeare Departing from their foundation" January 22, 2010. Category. Asia ECEC around the World Japan Reports from around the World.
4. Kallista Kindergarten " Al Groups" About Reggio Emilia, by Lu-Ann on 29 October, 2021. from, www.reggioalliance.org